

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

**“MUZEYLAR TO'G'RISIDA”GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA QO'SHIMCHALAR
KIRITISH HAQIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 14-
sentabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 21-oktabrda
ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-sentabrda qabul qilingan “Muzeylar to'g'risida”gi O'RQ-177-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 9, 483-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimchalar kiritilsin:

1) quyidagi mazmundagi 27¹-modda bilan to'ldirilsin:

“27¹-modda. Muzeylarning faoliyat turlari

Muzeylar qonunchilikda taqiqlanmagan hamda ushbu Qonunning 24-moddasida nazarda tutilgan muzeylarni tashkil etish maqsadlariga mos bo'lgan faoliyat turlarini o'z ta'sis hujjatlariga muvofiq amalga oshirishi mumkin. Bunda muzeylar tomonidan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanishi ta'minlanishi kerak”;

2) **28-modda** quyidagi mazmundagi to'rtinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Davlat muzeylariga pulli xizmatlar ko'rsatishdan, xayriyalardan hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan kelib tushadigan mablag'lar kelgusi yil uchun budjetdan moliyalashtirish hajmini belgilashda hisobga olinmaydi va ushbu mablag'lar hisobiga budjetdan moliyalashtirish miqdori kamaytirilmaydi. Bunda ko'rsatilgan mablag'lardan davlat muzeylarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa maqsadlar uchun foydalaniladi”.

2-modda. O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

3-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

4-modda. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 26-noyabr,
O'RQ-732-son

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.11.2021-y., 03/21/732/1098-son)